



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF PRIMARY EDUCATION TEACHER

Kuchimova Ozoda Sulaymanovna¹

Hamraqulova Madina Abdujamil qizi²

General education school No. 7, city of Jizzakh, Jizzakh region, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

KEYWORDS

early school age, impulsiveness, character, imitability, social relations, behavior, psychological processes, competence, professional knowledge

ABSTRACT

In this article, the opinions of philosophers and scientists about the characteristics of children of junior school age and their psychology, the professional knowledge of primary education teachers, the importance of psychological competence in teaching students, and recommendations are made. developed.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7344914

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher, General education school No. 7, city of Jizzakh, Jizzakh region, UZB

² Student, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, UZB

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISINING PSIXOLOGIK KOMPETENSIYASI

KALIT SO'ZLAR:

kichik maktab yoshi, tez qo'zg'aluvchanlik, xarakter, taqlidchanlik, ijtimoiy munosabatlar, xulq-atvor, psixologik jarayonlar, kompetentlik, kasbiy bilim

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar va ularning psixologiyasiga xos xususiyatlar to'g'risida faylasuf va olimlarning fikrlari, boshlang'ich ta'lism o'qituvchisining kasbiy bilimdonligi, o'quvchilarga ta'lism berishda psixologik kompetensiyaning ahamiyati atroflicha yoritilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy ta'limga eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lism maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lism jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz, shaxsan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan uzlucksiz ta'lism tizimini isloh qilish, uni dunyo tajribalariga asoslangan holda takomillashtirish borasida talaygina amaliy islohatlar olib borilmoqda. Xususan, uzlucksiz ta'lism tizimining eng asosiy bo'g'ini bo'lgan o'rta umumta'lism maktablarining ishini rivojlantirish borasidagi ishlar muhimdir³.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o'qituvchidan alohida sabot va mas'uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug'ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o'tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o'zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o'quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg'ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilardagi ijobiy o'zgarishlar rag'batlantirilishi muhim. Bo'sh o'zlashtiruvchilarining faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish masalalari bohlang'ich ta'limga asosiy muammolaridandir.

Taniqli psixolog D.Karnegi ta'kidlaganidek, dunyoda odamlarni nimadir qilishga undaydigan birgina usul bor. Mohiyatan bu usul odamni nimadir qilishni istashga majburlash demakdir.

Mashhur amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyuining fikriga ko'ra, inson tabiatiga xos bo'lgan eng asosiy intilish - bu "ahamiyatli - qadrli bo'lish istagi"⁴. Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega.

³ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. -104 b.

⁴ Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi». «Xalq ta'limi», 2004 yil, № 5.

"Bolalar nimani yaxshi ko'rishadi va nimani istashadi?" degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi:

1. Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar - o'yinlar, hikoyalar, o'zaro gap sotish, lofchilik kabilalar ana shunday instinkning belgilaridir.

2. Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo'zg'aluvchanlik, oxiri ko'rinxmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko'rish, ushlab ko'rish, tatib ko'rishga intilish sababi ana shunda.

3. Bolalar o'zini ko'rsatib turgisi keladi, o'zi haqida, o'z taassurotlari haqida gapirgisi, o'rtoqlashgisi keladi. O'z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo'ladi - bu bolalar ijodkorligi instinktidir.

4. Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g'ayrioddiy narsalarni to'qib chiqarishni yaxshi ko'rishadi.

5. Bolalarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol o'ynaydi.

Shularni yaxshi tushunib olsak, tashqaridan olib kiriladigan soxta stimullarni qidirib yurishimizga to'g'ri kelmaydi.

I.Ivashchenko tomonidan o'tkazilgan tekshirishlarning ko'satishicha, o'qish sharoitida o'quvchilarining o'zlariga ishonmaslik holatlari asosan quyidagi sabablar tufayli yuzaga keladi:

- a) o'qishda izchillik prinsipiga rioya qilmaslik tufayli;
- b) o'quvchilarga kuchlari yetmaydigan, ya'ni ortiqcha talab qo'yib yuborish orqali;
- d) ayrim pedagoglar, ota-onalar va shuning bilan birga sinfdoshlarning o'quvchilar kuchiga, xotira qobiliyatlari va fahm-farosatlariga ishonchksizlik bildirishi tufayli;
- e) ana shunday o'quvchilarni yomon baho olganliklari uchun qo'rqtish va jazolash orqali.⁵

L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, faqat jamoaviy hayot ichida va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida bolaning individual xulq-atvori shakllanadi. Faqat o'qituvchigina o'quvchisiga turli qat'iy talablar qo'yib, ularning xatti-harakatlarini baholay oladi, bolaning ijtimoiylashuviga sharoit yaratib, uni huquq va burchlar — ijtimoiy makoni tizimida standartlashuviga olib kela oladi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik muktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bolib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir⁶.

Yuqoridagi olimlarning mulohazalidan shu narsa ma'lum bo'lyapdiki, umumiyoq o'rta ta'lim maktablari, boshlang'ich sinflari o'quvchilarining psixologik jarayonlari (sezgi, idrok, diqqat, xotira, hayol, nutq, tafakkur), psixologik holatlari (his-tuyg'u, iroda), individual psixologik holatlari (temperament, xarakter, qobiliyat)larning rivojlanish xususiyatlarini bilishi talab etiladi. Bolaning psixologiyasini bilib tashkil etilgan dars, o'quvchilarining

⁵ Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashiriyoti, 2018 yil .308-bet.

⁶ Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashiriyoti, 2018 yil. 316-bet.

ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi va ta'limda samaradorlikka erishishning asosiy mezonlardan biri.

Buning uchun albatta o'qituvchidan yuksak kasbiy rivojlanganlik va pedagog uchun zarur bo'lgan barcha kompetensiyalarni rivojlanganligi talab etiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Su sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Ushbu kompetensiyalardan biri ham psixologik kompetensiya bo'lib bunga ko'ra -pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish kabilalar kiradiki, bunda ham o'qituvchidan psixologik bilimdonlik talab etiladi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishslash, o'z- o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishslash – pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi uchun quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- Kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish kabilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. -104 b.
2. Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi». «Xalq ta'limi», 2004 yil, № 5.
3. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya. Toshkent. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashiriyoti, 2018 yil .308-bet.
4. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya. Toshkent. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashiriyoti, 2018 yil. 316-bet.
5. Abduraxmanov R. Innovatsiya va ta'lim tizimining uzviyligi //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 51-53.
6. Abduraxmanov R., Azizov Q. Maxsus fanlarni o_ qitishning asosiy tamoyillari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 49-51.

7. Ko'chimov A., Mokhichekhra B. Historical Comparison of the Foreign Investment Climate in Small Business and Entrepreneurship in Jizzakh Region in 1991-2000 //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 120-123.
8. Sobirovna K. D. et al. DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP-A SPRINGBOARD FOR ENSURING MACROECONOMIC STABILITY //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – T. 27. – №. 2.
9. Qosimova D., Ko'chimov A. Fundamentals of Investment Environment in the Process of Digital Transformation of the Economy //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 55-59.